

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA SPORTNING RIVOJLANISHI

Behzod Dilmurodov

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349498>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Qashqadaryo viloyatida sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, rivojlanish jarayonlari va erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi. Maqola viloyatdagi sport infratuzilmasi, yoshlarni sportga jalb qilish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish va mavjud muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatadi. Shuningdek, kelajak istiqbollari va sportning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, sport, jismoniy madaniyat, mustaqillik, yoshlar, infratuzilma, xalqaro musobaqalar, islohotlar.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, sport va jismoniy madaniyat sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Qashqadaryo viloyati ham bu jarayonda muhim rol o'ynadi. Viloyatning sport infratuzilmasi va yoshlarni sportga jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlar natijasida ko'plab yutuqlarga erishildi. Ushbu maqolada viloyatda sportni rivojlantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Mustaqillikdan oldin O'zbekiston sporti ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi. Sport inshootlari yetarli emas edi, va yoshlar sport bilan shug'ullanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Mustaqillikdan so'ng esa davlat tomonidan sportni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. Viloyatda sport infratuzilmasini rivojlantirish uchun bir qator loyihalar amalga oshirildi. Sport majmualari, yangi zamonaviy sport komplekslari va stadionlar qurilishi natijasida yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Maktab sportini rivojlantirish maqsadida maktablarda jismoniy tarbiya darslari sifatini oshirish va musobaqalarni tashkil etish orqali sportga qiziqishni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi.

Yoshlarni sportga jalb qilish uchun bir qator tadbirlar o'tkazildi. Sport musobaqalari har yili o'tkazilib viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalar orqali yoshlarning sportga qiziqishi oshirildi. Maktablarda va boshqa ta'lim muassasalarida sport to'garaklari tashkil etilib, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlandi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi o'zgarishlar jamiyatimizning yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy sharoitlariga moslashtirildi. O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir, deb to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin. Bugun O'zbekistonda sport ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston aholisi yosh bo'lgan davlat bo'lib, respublika hududida istiqomat qiluvchilarning qariyb 40 qoizidan ko'prog'ini 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning har tomonlama rivojlanib, ham ma'nan, ham jismonan kamolotga erishishlari muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini, bolalar sportini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari

bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlari oshirish maqsadida qabul qilingan President farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizda ushbu sohani ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sport, xususan, bolalar sportini rivojlantirish uchun o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish borasida muayyan ko'rinishdagi huquqiy baza shakllantirildi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan jami 352 ta sport-ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ularning soni 367 taga yetgan. Shundan shahar joylarda – 324 ta, qishloq joylarda – 43 ta. Ayni paytda respublikamizda 254 ta bolalar sport maktablari, 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktablari, 15 ta olimpiya zahiralari kollejlari, 12 ta oliy sport mahorati maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiytexnika bazasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari bunyod etildi. 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda jami 6907,8 ming kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi aniqlandi. Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga kata umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ruyobga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko'ra, davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shartsharoitlar yaratadi. 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning ikkinchi tahriri 2000-yil 26-mayda tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilindi. Mazkur Qonunda O'zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy me'yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi. Mazkur qonun 8 bob va 47 moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqini ta'minlash; jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish; fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash; jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik; jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash; sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish; nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish; O'zbekistonning milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash; xalqaro hamkorlikni amalga oshirish shular jumlasidandir.

Xulosa

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi uchun muhim markaz hisoblanadi. Ushbu maqola viloyatda erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar va kelajak istiqbollarini ko'rsatadi. Sportning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida harakat qilish zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (2023). Sportni rivojlantirish dasturi.
2. Abdullayev, A. (2020). O'zbekistonning jismoniy madaniyati: tarix va bugun.
3. Karimov, I. (2018). Sport va jismoniy tarbiya: nazariya va amaliyot.
4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi (2024). Sport sohasidagi statistik ma'lumotlar.
5. Rasulov, M. (2019). Yoshlar o'rtasida sportni rivojlantirish: muammolar va yechimlar.
6. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
7. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАҲРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 6.1 (2023).
8. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 21. 2022.
9. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ-АДАБИЙ ҲАЁТИ." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.7 (2023): 41-43.
10. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида." *Academic research in educational sciences* 3 (2022): 399-411.
11. Khojayorov, A. (2023). The scientific-literary environment of the Nasaf oasis in the middle ages. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 885-888.
12. Khojayorov, A. (2024). *JURISPRUDENCE OF MUHAMMAD BAZDAWI (IX-XII CENTURIES)*. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (February 23 2024; Amsterdam, Netherlands), 188-191.
13. Хўжаёров, А. О. (2024). МИРЗО УЛУҒБЕКНИНГ АСТРОНОМИЯ ИЛМИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 332-336.
14. Бўриев, О., & Хўжаёров, А. О. (2024). ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ РЕНЕССАНСИ-УЙҒОНИШ ДАВРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 115-123.